



## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHAR HOKIMINING Q A R O R I**

2024 - yil 14 - fevral

99-14-0-Q/24

Toshkent shahar hokimligi

### **Toshkent shahridagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2024-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalarini hamda kichik sanoat zonalarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan to‘lanadigan ijara to‘lovi miqdorlarini belgilash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 25-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 19-fevraldagi PF–5666-son Farmoni va “Toshkent shahrida davlat va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va shahar infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha huquqiy eksperimentni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-iyuldagi PQ–236-son qarori, Vazirlar Mahkamasining “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2023-yil 14-dekabrda 660-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

### **Q A R O R    Q I L A M A N :**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrida davlat va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlik asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va shahar infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha huquqiy eksperimentni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-iyuldagi PQ–236-son qarori 2-bandining v-kichik bandiga asosan, Toshkent shahrida joylashgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun

ijara to'lovining eng kam stavkalari hamda kichik sanoat zonalarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan to'lanadigan ijara to'lovi miqdorlari har yili 31-dekabrgacha Toshkent shahri hokimligi tomonidan bozor tamoyillari asosida belgilanishi, bunda ijara to'lovlarining miqdori oldingi yil uchun belgilangan minimal ijara summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi inobatga olinsin.

## 2. Quyidagilar:

- Toshkent shahridagi davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2024-yilda qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari 1-ilovaga muvofiq;

- Toshkent shahridagi kichik sanoat zonalarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2024-yilda foydalanganlik uchun to'lanadigan ijara to'lovi miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

- ijara to'lovini (ijara to'lovining tayanch stavkasini) hisoblab chiqish tartibi va qo'llanadigan koeffitsiyentlar 3-ilovaga muvofiq;

- Toshkent shahrining markaziy qatnov ko'chalari ro'yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulk obyektlardan samarali foydalanish markazi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi (I.Kadirov) davlat mulkini ijaraga berish yuzasidan davlat mulkini balansda saqlovchi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan avval tuzilgan shartnomalarni xatlovdan o'tkazishni, ularni hisobga qo'yish va shartnomalarni belgilangan tartibda qayta rasmiylashtirishni ta'minlasin.

## 4. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2023-yil 14-dekabrdagi 660-son qaroriga muvofiq, byudjetdan moliyalashtiriladigan davlat muassasalari va ularning hududiy va tuman (shahar) bo'linmalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar vakolatxonolari, qo'shma loyihalarni amalga oshirish guruhlarini davlat mulki bo'lgan binolar va inshootlarga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil

19-fevraldagi PF–5666-son Farmoniga asosan davlat ko‘chmas mulk obyektlarini ijaraga berish bo‘yicha savdolar “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasi orqali amalga oshirilishi inobatga olinsin.

5. Belgilansinki, davlat mulkini balansida saqlovchilarning mansabdor shaxslari ularning tasarrufida bo‘lgan foydalanilmayotgan davlat mulki to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulk obyektlardan samarali foydalanish markazi Toshkent shahar hududiy boshqarmasiga o‘z vaqtida, to‘liq va ishonchli berilishi uchun shaxsan javob beradilar.

Balansda saqlovchi tasarrufidagi davlat mulkini xatlovdan o‘tkazishga va foydalanilmasdan bo‘sh turgan va/yoki maqsadsiz, samarasiz foydalanilayotgan davlat mulki haqida har chorak yakuni bilan hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasigacha bo‘lgan muddatda ijaraga beruvchiga bu mulkning joylashgan joyi, miqdori, tarkibi va boshqa umumiy tavsiflari ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni taqdim etishi shart.

Balansda saqlovchining yuqori turuvchi tashkilotlari ushbu ma‘lumotlar Markazning tegishli hududiy boshqarmasiga belgilangan tartib va muddatlarda taqdim etilishi ustidan idoraviy nazoratni ta‘minlaydi.

6. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmati mazkur qaror rasmiy e‘lon qilinishini va [www.toshkent.uz](http://www.toshkent.uz) veb-saytiga joylashtirilishini ta‘minlasin.

7. Toshkent shahar hokimining “Toshkent shahridagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2023-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari haqida” 2023-yil 27-yanvardagi 50-14-0-Q/23-son qarori (5-bandidan tashqari) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Ushbu qaror e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Toshkent shahar hokimining birinchi o‘rinbosari X.Shakirov zimmasiga yuklansin.

**Toshkent shahar hokimi  
vazifasini bajaruvchi**



**Sh.Umurzakov**

Toshkent shahar hokimining  
2024-yil 14-fevraldagi  
99-14-0-Q/24-son qaroriga  
1-ilova

**Toshkent shahridagi davlat ko'chmas mulkidan foydalanlik uchun  
2024-yilda qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari**

| T/r                     | Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi                      | 2024-yilda 1 kv.m.<br>maydon uchun yillik eng<br>kam ijara to'lovi<br>stavkalari<br>(QQS bilan birga) |
|-------------------------|---------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Ishlab chiqarish</b> |                                                                           |                                                                                                       |
| 1                       | Yoqilg'i ishlab chiqarish                                                 | 20 620                                                                                                |
| 2                       | Kimyoviy ishlab chiqarish (o'g'it mahsulotlari)                           | 20 620                                                                                                |
| 3                       | Neft-kimyosanoati                                                         | 20 620                                                                                                |
| 4                       | Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati                                      | 20 620                                                                                                |
| 5                       | Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish                                  | 20 620                                                                                                |
| 6                       | Traktorsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi                         | 16 680                                                                                                |
| 7                       | Engil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati | 16 680                                                                                                |
| 8                       | Sanitariya va gaz uskunalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish           | 20 620                                                                                                |
| 9                       | Metall konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati                             | 20 620                                                                                                |
| 10                      | Mashina va uskunalarni ta'mirlash                                         | 20 620                                                                                                |
| 11                      | Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari                                       | 20 620                                                                                                |
| 12                      | Ichimliklar ishlab chiqarish                                              | 20 620                                                                                                |
| 13                      | Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish                                      | 20 620                                                                                                |
| 14                      | Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish        | 20 620                                                                                                |
| 15                      | Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish                            | 66 900                                                                                                |
| <b>Qurilish sanoati</b> |                                                                           |                                                                                                       |
| 16                      | Qurilish, yo'l va kommunal muhandislik                                    | 16 680                                                                                                |
| 17                      | Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)           | 66 900                                                                                                |
| 18                      | Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)   | 88 200                                                                                                |

|                                                                     |                                                                                                                   |            |
|---------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| 19                                                                  | Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari                                                                              | 41 250     |
| 20                                                                  | Shlakoblok ishlab chiqarish                                                                                       | 20 620     |
| 21                                                                  | Polietilen mahsulotlari ishlab chiqarish                                                                          | 66 900     |
| 22                                                                  | Boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish                                                                     | 47 300     |
| <b>O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati</b> |                                                                                                                   |            |
| 23                                                                  | Yog'och mahsulotlarini tayyorlash sanoati                                                                         | 20 620     |
| 24                                                                  | Yog'ochni qayta ishlash sanoati                                                                                   | 20 620     |
| 25                                                                  | Sellyuloza-qog'oz mahsulotlari sanoati                                                                            | 20 620     |
| <b>Engil sanoat</b>                                                 |                                                                                                                   |            |
| 26                                                                  | To'qimachilik sanoati                                                                                             | 20 620     |
| 27                                                                  | Tikuvchilik sanoati                                                                                               | 20 620     |
| 28                                                                  | Charm, mo'yna va poyabzal mahsulotlari sanoati                                                                    | 20 620     |
| 29                                                                  | Engil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari                                                                  | 20 620     |
| <b>Oziq-ovqat sanoati</b>                                           |                                                                                                                   |            |
| 30                                                                  | Oziq-ovqat sanoati (baliq, go'sht, yog'-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)                 | 20 620     |
| 31                                                                  | Go'sht mahsulotlari sanoati                                                                                       | 20 620     |
| 32                                                                  | Sut mahsulotlari sanoati                                                                                          | 41 250     |
| 33                                                                  | Baliq mahsulotlari sanoati                                                                                        | 20 620     |
| 34                                                                  | Tegirmonchilik sanoati                                                                                            | 20 620     |
| 35                                                                  | Kombikorm (omuxta yem) sanoati                                                                                    | 16 680     |
| 36                                                                  | Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish                                                                          | 20 620     |
| 37                                                                  | Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari                                                                          | 20 620     |
| <b>Sanoatning boshqa tarmoqlari</b>                                 |                                                                                                                   |            |
| 38                                                                  | Tibbiyot sanoati                                                                                                  | 20 620     |
| 39                                                                  | Poligrafiya sanoati                                                                                               | 66 900     |
| 40                                                                  | Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo'yash, yuvish va matolarni qayta ishlash | 49 520     |
| <b>Qishloq xo'jaligi</b>                                            |                                                                                                                   |            |
| 41                                                                  | O'simlikshunoslik 1 gektar yer maydoni uchun                                                                      | 13 533 100 |

|                                    |                                                                                                                      |            |
|------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| 42                                 | Issiqxona xo'jaligi                                                                                                  | 11 800     |
| 43                                 | Chorvachilik va parrandachilik                                                                                       | 16 680     |
| 44                                 | Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun                                                              | 13 533 100 |
| 45                                 | Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun                                                                             | 8 097 160  |
| 46                                 | Veterinariya xizmatlari                                                                                              | 20 620     |
| 47                                 | Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar                                                          | 20 620     |
| 48                                 | O'rmon xo'jaligi (shu jumladan bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun                                                   | 13 533 100 |
| <b>Transport va aloqa</b>          |                                                                                                                      |            |
| 49                                 | Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)                                | 53 920     |
| 50                                 | Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)                                                                       | 24 300     |
| 51                                 | Avtomobillarni yuvish                                                                                                | 79 300     |
| 52                                 | Avtomobillarga yoqilg'i quyish (benzin, dizel)                                                                       | 72 200     |
| 53                                 | Avtomobillarga yoqilg'i quyish (gaz qo'yish shoxobchalari)                                                           | 82 950     |
| 54                                 | Elektromobillarni quvvatlash shoxobchasi                                                                             | 36 100     |
| 55                                 | Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari                                    | 49 450     |
| 56                                 | Pochta aloqasi                                                                                                       | 45 430     |
| 57                                 | Kuryerlik aloqasi                                                                                                    | 53 920     |
| 58                                 | Elektr-simli aloqa                                                                                                   | 53 920     |
| 59                                 | Radio, uyali aloqa va peyjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)                              | 174 870    |
| <b>Savdo va umumiy ovqatlanish</b> |                                                                                                                      |            |
| 60                                 | Ulgurji savdo                                                                                                        | 82 950     |
| 61                                 | Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari | 199 650    |
| 62                                 | Chakana savdo                                                                                                        | 124 490    |
| 63                                 | Umumiy ovqatlanish                                                                                                   | 82 950     |
| 64                                 | Madaniy meros obyektlar bino va inshootlarida joylashgan savdo do'konlari                                            | 133 100    |
| 65                                 | Madaniy meros obyektlari bino va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shoxobchalari                           | 100 200    |

|                                                                 |                                                                                                                                                    |         |
|-----------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| 66                                                              | Suv havzalari (suv omborlari) hamda daryo bo'ylarida baliq mahsulotlari, shu jumladan, baliq taomlari savdosi, umumiy ovqatlanishni tashkil etish* | 82 950  |
| 67                                                              | Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast-fud)                                                                             | 79 300  |
| 68                                                              | Kitob do'konlari                                                                                                                                   | 7 900   |
| 69                                                              | Lombardlar                                                                                                                                         | 100 200 |
| <b>Xizmat ko'rsatish</b>                                        |                                                                                                                                                    |         |
| 70                                                              | Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo'jalik buyumlarini ijaraga berish joylari                                                                    | 82 950  |
| 71                                                              | Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko'rsatish (nusxa ko'chirish xizmati)                                                            | 91 210  |
| 72                                                              | Kompyuter o'yinlarini tashkil etish                                                                                                                | 136 820 |
| 73                                                              | Ko'chmas mulklar bilan bog'liq munosabatlar                                                                                                        | 91 210  |
| 74                                                              | Reklama, ko'rgazmalar xizmatlari                                                                                                                   | 82 950  |
| 75                                                              | Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari                                                               | 124 490 |
| 76                                                              | Mehmonxona xo'jaligi                                                                                                                               | 91 210  |
| 77                                                              | Umumiy yashash joylari                                                                                                                             | 52 860  |
| 78                                                              | Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari                                                                                                      | 50 270  |
| 79                                                              | Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelyesi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi                                                                    | 66 670  |
| 80                                                              | Hammomlar                                                                                                                                          | 142 100 |
| 81                                                              | Saunalar va basseynlar                                                                                                                             | 289 920 |
| 82                                                              | Paxta (ilgari iste'molda bo'lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari                                                                          | 46 250  |
| <b>Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot</b> |                                                                                                                                                    |         |
| 83                                                              | Sog'liqni saqlash                                                                                                                                  | 66 550  |
| 84                                                              | Tibbiy diagnostika xizmati (shu jumladan laboratoriya)                                                                                             | 78 350  |
| 85                                                              | Sayyohlik va dam olishni tashkil etish                                                                                                             | 66 550  |
| 86                                                              | Fitobar                                                                                                                                            | 28 790  |
| 87                                                              | Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)                                                                | 91 210  |
| 88                                                              | Suv bo'yida plyaj zonalarini tashkil etish*                                                                                                        | 66 550  |
| 89                                                              | Baliq ovlash maskanlari*                                                                                                                           | 66 550  |

|                                |                                                                                            |         |
|--------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| 90                             | Qayiqda suzish va suv sayohati bo'yicha boshqa xizmatlar ko'rsatish*                       | 66 550  |
| 91                             | Suv havzalari (suv omborlari) hamda daryo bo'ylarida turizm xizmatlarini tashkil etish*    | 66 550  |
| 92                             | Jismoniy tarbiya va sport                                                                  | 28 790  |
| 93                             | Dorixonalar                                                                                | 66 550  |
| 94                             | Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do'konlari                                    | 66 200  |
| 95                             | Ijtimoiy-dorixonalar                                                                       | 46 250  |
| <b>Ta'lim</b>                  |                                                                                            |         |
| 96                             | Oliy va o'rta-maxsus ta'limi ma'lumotli kadrlarni tayyorlash                               | 58 410  |
| 97                             | O'quv kurslarini tashkil etish (IT-kurslari)                                               | 70 210  |
| 98                             | Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish                              | 41 770  |
| 99                             | Bolalar umumta'lim maktablari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)                         | 35 100  |
| 100                            | Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish                              | 41 470  |
| 101                            | Umumiy o'rta ta'lim maktablarida umumiy ovqatlanish                                        | 32 020  |
| 102                            | Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)                      | 20 620  |
| 103                            | Madaniyat va san'at                                                                        | 116 350 |
| 104                            | Ko'rgazmalar                                                                               | 55 580  |
| 105                            | Madaniyat va dam olish bog'lari                                                            | 58 410  |
| 106                            | Botanika bog'lari va zooparklar                                                            | 58 410  |
| 107                            | Televideniyelar va radioeshittirishlar redaksiyalari                                       | 58 410  |
| 108                            | Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari                                                    | 207 680 |
| 109                            | Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish                                                          | 41 180  |
| 110                            | Avtomaktablar                                                                              | 71 500  |
| <b>Moliya-kredit faoliyati</b> |                                                                                            |         |
| 111                            | Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)     | 82 950  |
| 112                            | Auditorlik faoliyati                                                                       | 63 720  |
| 113                            | Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar | 82 950  |

|                                    |                                                                                                                                                       |           |
|------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| 114                                | Bank faoliyati                                                                                                                                        | 124 490   |
| <b>Faoliyatning boshqa turlari</b> |                                                                                                                                                       |           |
| 115                                | Sug'urta va notarial xizmatlar                                                                                                                        | 82 950    |
| 116                                | Sud va yuridik xizmat muassasalari                                                                                                                    | 58 410    |
| 117                                | Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar                                                                                                     | 58 410    |
| 118                                | Jamoatchilik birlashmalari                                                                                                                            | 20 620    |
| 119                                | Omborxonalar                                                                                                                                          | 82 950    |
| 120                                | Davlat tashkilotlariga ofis                                                                                                                           | 41 180    |
| 121                                | Xususiy tashkilotlarga ofis                                                                                                                           | 141 240   |
| 122                                | Arxiv xizmati                                                                                                                                         | 26 430    |
| 123                                | Tahririyat va nashriyotlar                                                                                                                            | 46 250    |
| 124                                | Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari                                                                               | 46 250    |
| 125                                | Turar joy-kommunal xo'jaliklari                                                                                                                       | 46 250    |
